



Umumta'lim maktabining 2024-2025- o'quv yili biologiya fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun topshiriqlar varianti

11 - ____ sinf o'quvchisi _____ F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 40)

I-VARIANT

1. (B) Mustaf o qir qbo'g'imning hayotiy sikli, sporofit va gametofit bo'g'inning gallanishi, ko'payishi va rivojlanishini o'rgandi. U ekologiya qaysi sohasida ish olib bordi?

- A) Sinekologiya
- B) Autekologiya
- C) Demekologiya
- D) Tarixiy ekologiya


2. (B) Olim O'zbekistonda tarqalgan qaldirg'ochlarning qaysi joylarga migratsiya qilishini kuzatish orqali o'rgandi, u ekologiya qaysi metodidan foydalandi?

- A) dala metodi
- B) ekologik tajriba metodi
- C) matematik modellashirish metodi
- D) taqqoslash metodi

3. (B) Redutsent organizmlar berilgan javobni aniqlang. 1) muxomor; 2) molodilo; 3) qoplon; 4) quyon; 5) lochin; 6) qirqquloq; 7) qo'ziqorin; 8) qir qbo'g'im; 9) chirituvchi bakteriya;

- A) 1,7,9
- B) 2,6,8
- C) 3,4,5
- D) 2,7,8

4. (Q) Quyida berilgan grafikdan foydalanib to'g'ri ma'lumotni aniqlang.



- 1) Ushbu organizm uchun omilning quyi chegarasi 30°C ni tashkil etadi;
- 2) Tolerantlik zonasi 4°C -30°C ni tashkil etadi;
- 3) Noqulay hayot zonasi 4°C -10,5°C va 23,5°C - 30°C;
- 4) Biologik optimum zonasi 4°C

- A) 1,4
- B) 2,3
- C) 1,2
- D) 3,4

5. (Q) Rasmda berilgan o'simliklarga mos keluvchi to'g'ri javobni toping.



a



b

- 1) urug'i suv o'tkazmaydigan qobiqqa ega; 2) bargi tikanga aylangan; 3) aerenxima rivojlangan;
4) poyasida suv saqlaydi;
A) a-2,4; b-1,3
B) a-2,3; b-1,4
C) a-1,4; b-2,3
D) a-1,3; b-2,4

6. (Q) Jadvaldagi noma'lum X uchun to'g'ri berilgan javobni toping.

Abiotik	Notirik tabiat omillari	X3
Biotik	X2	mog'or zamburug'ining bakteriyalarga qarshi antibiotik ishlab chiqarishi;
X1	Inson faoliyati bilan bog'liq omillar	o'rmonlarning kesilishi

- 1) Antropogen; 2) neogen; 3) tirik tabiat omillari; 4) kakku paloponining boshqa qushlar inida voyaga yetishi; 5) yog'ingarchilik kam bo'lishi oqibatida boshqoli o'simliklarning qurib qolishi; 6) anorganik tabiat omillari; 7) yorug'da primatlarning rang ajrata olishi;
A) X1-1; X2-3; X3-4;
B) X1-2; X2-6; X3-5;
C) X1-1; X2-3; X3-7;
D) X1-3; X2-4; X3-7;

7. (Q) Fotoperiodizmga mos keluvchi javobni aniqlang. 1) laylaklarning migratsiya qilishi; 2) qoqio'tning urug'dan unib chiqishi; 3) mushuklarning hududini belgilab qo'yishi; 4) bug'doyning kun uzunligiga bog'liq holda boshqoq tugishi; 5) chigirtkalar populyatsiyasining kamayishi; 6) ayiqning qishki uyquga ketishi;

- A) 1,4,6
B) 2,3,5
C) 1,3,6
D) 2,4,5

8. (Q) Rasmdagi organizmlar uchun mos keluvchi javoblarni juftlang. 1) yashash doirasi keng bo'lgan organizmlar; 2) muhitning o'zgaruvchan sharoitiga moslashuvchan bo'ladi; 3) muhitning keng doiradagi o'zgarishlariga bardosh bera olmaydi; 4) tur areali tor bo'ladi; 5) evribion; 6) stenobion;




a



b


- A) a-1,3,6; b-2,4,5
- B) a-2,3,5; b-1,4,6
- C) a-1,2,5; b-3,4,6
- D) a-1,4,6; b-2,3,5

9. (Q) Aspirant o'simlik bargidagi pigmentlar miqdorini faslga bog'liqligini o'rgandi. Olingan natijalar diagramma ko'rinishiga keltirildi. Diagramma asosida to'g'ri fikrni aniqlang.



- 1) Pigmentlar miqdori kuzga kelib kamayadi;
 - 2) Kuzda xlorofill miqdori keskin kamayadi;
 - 3) Karotinoid miqdori o'zgarmasdan qoladi;
 - 4) Karotinoid miqdori bahorda kamayib, kuzga borib ortadi;
 - 5) Bahorda xlorofill a xlorofill b ga nisbatan 2 barobar ko'p bo'ladi;
- A) 1,5
 - B) 2,4
 - C) 2,3
 - D) 3,5

10. (M) O'quvchilar guruhi adir qiyaliklarida o'simliklar turlicha zichlikda joylashganligining guvohi bo'lishdi. Rasmda ko'rsatilgandek, A qiyalikda o'simliklar miqdori B qiyalikka qaraganda ko'proq va



zichroq joylashgan. O'quvchilar buning sababini aniqlash uchun ma'lum muddat davomida 3 xil ekologik omil ta'sirini tekshirishdi.

- **Quyosh nurlanishi:** tekshirilayotgan hududga qancha quyosh nuri tushishi aniqlanadi.
 - **Tuproq namligi:** tekshirilayotgan hududdagi tuproqning namligi aniqlanadi.
 - **Yog'ingarchilik miqdori:** tekshirilayotgan hududda yog'ayotgan yomg'ir miqdori aniqlanadi.
- O'quvchilar har bir qiyalikka 3 xil ekologik omil ta'sirini tekshiradigan asboblarni 2tadan joylashtirib

chiqishdi. Olingan natijalar quyidagi jadval ko'rinishiga keltirildi.

	O'rtacha quyosh nurlanishi	O'rtacha tuproq namligi	O'rtacha yog'ingarchilik miqdori
A qiyalik	3800	28	450
B qiyalik	7200	18	440

Olingan natijalarga asoslanib to'g'ri javobni toping.

- A) Tuproq namligi qiyalikdagi yog'ingarchilik miqdorining keskin farqlanishi sababli turlicha ko'rsatgichga ega.
- B) Tuproq namligi qiyaliklardagi quyoshning turlicha nurlanish darajasiga bog'liq.
- C) B qiyalikda nurlanishning yuqori bo'lishi tuproqdagi namlikning ortishiga sabab bo'ladi.
- D) Yog'ingarchilik miqdori deyarli bir xil bo'lganligi sababli tuproq namligi ikkala qiyalikda bir xil.